



INTEGRATIV METODLAR ORQALI LINGVO METODIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Mahmudova Shodiyaxon Qobil qizi

Qarshi davlat universiteti Doktorantura talabasi

E-Mail:shodiyamahmudova600@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida bo'lajak til mutaxassislarining lingvo-metodik tafakkurini rivojlantirishning pedagogik asoslari tadqiq etiladi. Muallif integrativ metodlarni qo'llash orqali talabalarda pedagogik mahorat va til qonuniyatlarini uyg'unlashtirish masalasini markaziy muammo sifatida tahlil qiladi. Maqolada fanlararo aloqadorlik (tilshunoslik, psixologiya va pedagogika) prinsiplari asosida lingvo-metodik tafakkurning tarkibiy qismlari va ularni shakllantirish bosqichlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida integrativ yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirishda va murakkab pedagogik vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantirishda muhim omil ekanligi asoslangan.

Kalit so'zlar: integrativ metodlar, lingvo-metodik tafakkur, pedagogik muammo, fanlararo aloqadorlik, kasbiy kompetensiya, til ta'limi, pedagogik yondashuv.

DEVELOPMENT OF LINGUO-METHODICAL THINKING THROUGH INTEGRATIVE METHODS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract. This article examines the pedagogical foundations for developing the linguo-methodical thinking of future language specialists in the higher education system. The author analyzes the problem of harmonizing pedagogical skills and linguistic patterns in students through the application of integrative methods. The article highlights the structural components of linguo-methodical thinking and the stages of its formation based on the principles of interdisciplinarity (linguistics, psychology, and pedagogy). As a result of the research, it is substantiated that the integrative approach is a key factor in enhancing the professional competence of future teachers and developing the ability to make sound decisions in complex pedagogical situations.

Keywords: integrative methods, linguo-methodical thinking, pedagogical problem, interdisciplinarity, professional competence, language education, pedagogical approach.



РАЗВИТИЕ ЛИНГВОМЕТОДИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ИНТЕГРАТИВНЫЕ МЕТОДЫ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. В данной статье исследуются педагогические основы развития лингвометодического мышления будущих специалистов языковой сферы в системе высшего образования. Автор анализирует проблему гармонизации педагогического мастерства и языковых закономерностей у студентов посредством применения интегративных методов. В статье освещены компоненты лингвометодического мышления и этапы их формирования на основе принципов междисциплинарности (лингвистика, психология и педагогика). В результате исследования обосновано, что интегративный подход является важным фактором повышения профессиональной компетенции будущих учителей и развития навыков принятия правильных решений в сложных педагогических ситуациях.

Ключевые слова: интегративные методы, лингвометодическое мышление, педагогическая проблема, междисциплинарность, профессиональная компетенция, языковое образование, педагогический подход.

Kirish (Introduction). Globallashuv va raqamli transformatsiya davrida oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri- bitiruvchining nafaqat nazariy bilimga ega bo'lishi, balki o'zgaruvchan kasbiy muhitda kreativ va tahliliy qarorlar qabul qila olish kompetensiyasini shakllantirishdir. Xususan, filologik ta'lim yo'nalishlarida bo'lajak o'qituvchilarning lingvo-metodik tafakkurini rivojlantirish masalasi o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Lingvo-metodik tafakkur- bu tilshunoslik (lingvistika) hamda ta'lim nazariyasi (metodika) o'rtasidagi dialektik aloqadorlikni anglash bo'lib, u bo'lajak mutaxassisga til hodisalarini o'quvchilarga yetkazishda didaktik transformatsiya qilish imkoniyatini beradi.

Muammoning qo'yilishi. Bugungi pedagogik voqelikda talabalar til nazariyasini yaxshi o'zlashtirgan bo'lsalar-da, uni amaliy pedagogik jarayonga tatbiq etishda, ya'ni "nima uchun o'rgatish kerak?" va "qanday qilib samarali o'rgatish mumkin?" degan savollarga kompleks yondashishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Bilimlarning tarqoqligi, ya'ni tilshunoslik fanlarining metodika fanlaridan uzilib qolishi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa ta'lim tizimida integrativ metodlarni joriy etishni zaruriyatga aylantiradi. Integratsiya- bu shunchaki fanlarni birlashtirish emas, balki kognitiv jarayonlarni sintez qilish orqali yangi sifatdagi intellektual salohiyatni yuzaga keltirishdir.

Tadqiqot metodologiya (Research Methodology). Bugungi kunda oliy ta'limda talabalar ko'pincha nazariyani (masalan, morfologiya yoki sintaksisni) alohida fan sifatida, metodikani esa alohida fan sifatida o'rganadilar. Natijada, talaba nazariyani bilsa-da, uni amaliyotda qanday qo'llashni bilmaydi. Dars o'tishda quruq qoidalarga



tayanib qoladi, bu esa o'quvchilarda zerikish va til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqning so'nishiga olib keladi. Vaziyatli o'zgarishlarga (masalan, o'quvchining savollariga) kreativ javob bera olmaslik muammosi yuzaga keladi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida kompetensiyaviy va tizimli yondashuvlar tanlab olindi. Lingvo-metodik tafakkurni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida tahlil qilinarkan, tadqiqot jarayoni quyidagi nazariy-metodik bosqichlarni qamrab oldi. Masalan: gnoseologik tahlil: mazkur bosqichda tilshunoslik va pedagogikaning kesishish nuqtalaridagi ilmiy qarashlar qiyoslandi. Xususan, til hodisalarini o'rgatishda lingvistik tahlilning metodik talqin bilan sintezi falsafiy va pedagogik kategoriya sifatida tadqiq etildi. Bundan tashqari, modellashtirish metodi: bo'lajak o'qituvchining kognitiv faoliyatini rivojlantirish maqsadida integrativ o'quv muhitining pedagogik modeli yaratildi. Bu modelda talabaning nazariy bilimi (lingvistik kompetensiya) va uni uzatish mahorati (didaktik kompetensiya) yaxlit strukturaviy birlik sifatida qaraldi. Hermenevtik yondashuv: matnlar va til birliklari ustida ishlashda talabalarning talqin qilish, ma'no ko'chishlarini pedagogik maqsadlarga moslashtirish va metodik manbalarni kreativ tahlil qilish ko'nikmalari o'rganildi. Sifat tahlili (qualitative analysis): eksperiment jarayonida miqdoriy ko'rsatkichlardan ko'ra, talabalarning dars tahliliga bo'lgan munosabati, metodik refleksiyasi va standart bo'lmagan pedagogik vaziyatlarda namoyon qilgan intellektual salohiyatining sifat o'zgarishlariga asosiy e'tibor qaratildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results): Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, lingvo-metodik tafakkurning shakllanishi bevosita interdisiplinar (fanlararo) integratsiya sifatiga bog'liq. Nazariy tahlillar asosida quyidagi ayrim xulosalarga kelindi. Lingvo-metodik tafakkur shunchaki metodik usullar majmuyi emas, balki til tizimi haqidagi fundamental bilimlarni ta'lim oluvchi idrokiga moslashtirishni ta'minlovchi murakkab psixolingvistik jarayon ekanligi aniqlandi. Integrativ metodlar talabaning o'quv materiali bilan ishlash strategiyasini o'zgartiradi: u til birligini quruq qoida sifatida emas, balki nutqiy muloqot va ta'limiy vosita sifatida ko'ra boshlaydi. Pedagogik muammo sifatida mazkur jarayonni tashkil etishda "o'qituvchi – o'quv materiali – talaba" zanjiridagi uzilishlarni faqatgina fanlar sintezi orqali bartaraf etish mumkinligi isbotlandi.

Olingan natijalar ko'rsatadiki, lingvo-metodik tafakkurni rivojlantirishda metodik mahorat lingvistik tahlil bilan "qorishib" ketishi lozim. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak o'qituvchi tilda ro'y berayotgan transformatsiyalarni o'zlashtirishi bilan birga, ularni o'qitish metodikasining dinamik o'zgarishlari bilan hamohang tushunishi kerak. Integrativ yondashuv talabada evristik qobiliyatlarni uyg'otadi, bu esa unga kutilmagan metodik savollarga ilmiy va mantiqiy asoslangan javoblar topish imkonini beradi.

Integrativ metodlar orqali lingvo-metodik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik mexanizmi aniqlandi. Natijada ma'lum bo'ldiki, integratsiya jarayoni talabada nafaqat



bilimlar zaxirasini boyitadi, balki ularni operatsional faollikka undaydi. Ya'ni, talaba til qoidasini shunchaki eslab qolmay, uning nutqdagi vazifasini va o'quvchiga yetkazishning eng optimal "ko'prigini" topishga o'rganadi. Muhokama jarayonida shunga amin bo'lindiki, agar ta'lim jarayonida integrativ metodlar qo'llanilmasa, talaba "nazariyotchi-lingvist" bo'lib qoladi, biroq "amaliyotchi-pedagog" sifatida faoliyat yurita olmaydi. Bizning yondashuvimizda lingvistik tahlil va metodik usul bir vaqtning o'zida o'rganiladi: masalan, fe'l zamonlarini o'rganishda talaba bir vaqtning o'zida ushbu mavzuni o'yin texnologiyalari yoki mantiqiy modellar orqali tushuntirish loyihasini ishlab chiqadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations). Mazkur tadqiqot davomida integrativ yondashuv tamoyillari asosida talabalarning lingvometodik tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari keng qamrovli o'rganildi. Integrativ metodlar orqali lingvo-metodik tafakkurni rivojlantirish -zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb va strategik yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayon bo'lajak o'qituvchining professional moslashuvchanligini ta'minlaydi. Pedagogik muammo sifatida ushbu tafakkur turining shakllanmaganligi ta'limda sifat pasayishiga olib keladi. Integratsiya - bilimlarni sun'iy ravishda qo'shish emas, balki ularni o'zaro boyitish orqali yangi metodik tafakkur madaniyatini yaratishdir. Oliy ta'lim o'quv dasturlariga fanlararo bog'liqlikni kuchaytiruvchi maxsus integrativ modullarni kiritish, talabalarni mustaqil metodik tadqiqotlarga yo'naltirish lozim. Bo'lajak til mutaxassislarining lingvo-metodik tayyorgarligini takomillashtirish uchun nazariy kurslarni metodik amaliyot bilan uzviy bog'lovchi "metodik laboratoriyalar" tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa bo'lajak o'qituvchining jamiyatdagi intellektual maqomini va kasbiy nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR(REFERENCES):

1. Vygotsky, L. S. (1934). Thought and Language. (24-28)
2. Bruner, J. S. (1966). Toward a Theory of Instruction. (123-126)
3. Bloom, B. S. (1956). Taxonomy of Educational Objectives. (90-93)
4. Vinogradov, V. V. (1972). Русский язык (Грамматическое учение о слове). (145-147)
5. Passov, E. I. (1989). Основы коммуникативной методики обучения иноязычному общению. (120-125)
6. Mahmudov, N. (2012). Til ta'limi va tilshunoslikning o'zaro munosabati. (121 - 123)
7. Guzeyev, V. V. (2006). Основы образовательной технологии: дидактический инструментарий. (20-22)
8. Safarova, R. (2009). Oliy ta'lim muassasalarida integratsiyalashgan kurslarni yaratish va o'qitish metodikasi. (134-136)



9. Yo'ldoshev, J. G'., Usmonov, S. A. (2004). Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. (167-169)